



THE EDUCATIONAL IMPORTANCE OF FAMILY AND SCHOOL COOPERATION

Usanova Nozima Shavkat qizi

Tashkent International University of Chemistry, Samarkand Branch

Master's student, Department of Primary Education

Article history:		Abstract:
Received: 8 th August 2025	Accepted: 7 th September 2025	This article discusses the role of family and school cooperation in shaping a child's personality and the main mechanisms that ensure effective collaboration between them. It also examines the factors that influence the success of family-school partnership in the education process, the challenges observed in pedagogical practice, and modern requirements for overcoming them. In addition, the article provides recommendations and proposals for improving family-school cooperation.

Keywords: family, school, cooperation, upbringing, responsibility, communication pedagogical partnership, personality development.

OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Usanova Nozima Shavkat qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali

Boshlang'ich ta'lim kafedrası magistrant

Annotatsiya

Ushbu maqolada oila va maktabning bola shaxsini rivojlantirishdagi o'rnı, ularning o'zaro hamkorligini tashkil etish tamoyillari, zamonaviy tarbiya jarayonidagi ahamiyati va samaradorlik omillari yoritilgan. Shuningdek, pedagogik amaliyotda qo'llaniladigan hamkorlik shakllari, zamonaviy talablardan kelib chiqib taklif va tavsiyalar berilgan

Kalit so'zlar: Oila, maktab, hamkorlik, tarbiya mas'uliyat, kommunikatsiya, pedagogik hamkorlik, shaxs rivoji

KIRISH. Bola tarbiyasida oila va maktab eng muhim ikki institut hisoblanadi. Oila- tarbiyaning birlamchi va eng tabiiy muhiti bo'lsa, maktab shaxs rivojining ijtimoiylashuv jarayonini tizimli davom ettiradi. Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalar kengaygan bir davrda tarbiyaviy jarayon yanada murakkablashgan bo'lib, oila va maktab o'rtasidagi hamkorlikning mazmun va shakllarini qayta ko'rib chiqishni talab etadi.

Zamon talablari bola tarbiyasiga kompleks yondashuvni, ota- ona, pedagog, psixolog va jamiyatning barcha bo'g'inlari o'rtasida uzluksiz aloqani shakllantirishni taqozo etmoqda. Shu sababli "oila-maktab hamkorligi" masalasi ta'lim tizimining eng dolzarb yo'nalishlaridan biridir.

Oila- bola tarbiyasining asosiy instituti. Oila bolaga birinchi marta axloqiy me'yorlarni, madaniy qadriyatlarni, ijtimoiy muhit qoidalarini singdiradi. Aynan oilada bolaning xarakteri shakllanadi; mehnat, muomala, madaniyatga oid dastlabki ko'nikmalar shakllanadi; axloqiy qadriyatlar mustahkamlanadi; mas'uliyat va burch tushunchalari rivojlanadi; ijtimoiy rolga moslashuv boshlanadi.

Oila tarbiyasi mustahkam bo'lgan bola maktabga psixologik jihatdan tayyor bo'ladi, muloqotda ochiq, bilim olishga qiziqadigan, madaniyatli bo'lib shakllanadi.

Oila tarbiyasida vujudga kelgan kamchiliklar maktab tarbiyaviy jarayonida sezilib turadi; shu bois hamkorlik tizimli bo'lishi zarur. [1,54-bet]

Maktab bola tarbiyasida ilmiy asoslangan yondashuvni ta'minlaydi. SHu jumladan:

Shaxsning intellektual rivoji, ma'naviy axloqiy tarbiyasi, madaniy va ijtimoiy kompetensiyalari, kommunikativ ko'nikmalari, mehnat va mas'uliyat tushunchalari izchil shakllantiradi. Maktabning asosiy tarbiyaviy vazifasi-oilada boshlangan tarbiya jarayonini to'ldirish, boyitish va davom ettirishdir.

Oila va maktabning hamkorlikdagi tarbiyaviy ta'siri barkamol shaxs shakllanishining eng muhim omillardan biridir. [2,45 bet]

Shunday ekan bola maktabda boshlagan tarbiyani uyda davom ettirishi, uyda shakllangan odatlarni maktabga olib kirishi muhim. Hamkorlik bo'lmasa, bola ikki xil tarbiya standartiga duchor bo'lib, unda tushunmovchiliklar keltiradi. Bugungi ta'lim jarayonida hamkorlik turli shakllarda yo'lga qo'yilgan. An'anaviy shakllar: ota -onalar yig'ilishi, ochiq eshiklar kuni, sinf rahbari bilan muntazam suhbatlar, tarbiyaviy tadbirlarga ota -onalarni jalb etish. Zamonaviy shakllari esa, onlayn muloqot, zoom\meet orqali maslahatlar, ota-onalar uchun vebinarlar, treninglar kabi shakllari mavjud. Shu

jumladan hamkorlikda tashkil etiladigan tarbiyaviy tadbirlar, ya'ni kitobxonlik kechalari, sport musobaqalari, milliy bayramlar, ma'naviy -marifiy uchrashuvlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadbirlar o'quvchi, oila, maktabni yagona tarbiyaviy muhitga birlashtiradi.

Maktab va oila o'rtasidagi muntazam muloqot tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshiradi, o'quvchi shaxsini har tomonlama qo'llab quvvatlash imkonini yaratadi.

[3,63 bet]

Metodologiya

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi" qonuni, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", "Oila kodeksi", Maktab va ota-onalar hamkorligini kuchaytirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan farmon va qarorlari kabi hujjatlar oila va maktabning birgalikdagi tarbiyaviy mas'uliyatini belgilovchi asosiy manbalar hisoblanadi.

Tadqiqot oila va maktab hamkorligining tarbiyadagi rolini yoritishda quyidagi pedagogik nazariyalar va ilmiy qarashlarga tayanildi:

1. A.S.Makarenko-bolani tarbiyalashda oila muhitning asosiy omil ekanligi haqidagi g'oyalar
2. L.S.Vyotskiy-bolalar rivojlanishida ijtimoiy muhit va kattalar bilan muloqotning o'рни
3. J.Dewey-maktabning jamiyat va oila bilan uzviy aloqada bo'lishi zarurligi
4. SH.Amonov, N.Azamov, M.Ochilov kabi o'zbek pedagoglarining oila-mahalla-maktab hamkorligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy qarashlari.

Tadqiqot jarayonida bir qancha ilmiy pedagogik usullardan foydalanildi. Jumladan:

+Kuzatish- ota-onalar bilan olib borilayotgan ishlar sinf yig'ilishlari, o'quvchi tarbiyasidagi ishtirok darajasi

+Suhbat va intervyu- ota-onalar o'qituvchi va o'quvchilar bilan suhbatlar orqali hamkorlik samaradorligini aniqlash

+So'rovnomma- hamkorlikning real hayotini o'rganish maqsadida ota-onalarga yo'naltirilgan savollar

+Dagnostik metodlar- o'quvchilarning tarbiyaviy ko'rsatkichlari va iltimoij faolligini baholash

Oila-maktab hamkorligining zamonaviy modellarini(onlayn muloqot, elektron kundalik, ota-onalar klubi)tahlil qilish va ularning tarbiyaviy samaradorligini asoslab berishimiz, ota-onalarning tarbiyaviy kompetentligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlatishimiz, maktabdagi tarbiyaviy tadbirlarning samaradorligini oshirish uchun hamkorlikning integratsion yondashuvni taklif etishimiz tadqiqotning samaradorligini oshirishga bir muncha yordam berdi. Tadqiqotimizning maqsadi: oila va

maktab hamkorligining tarbiyaviy ahamiyatini ilmiy asoslash va hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish bo'lsa, undagi vazifalar quyidagilardan iborat:

*Oila va maktab hamkorligining nazariy asoslarini tahlil qilish, hamkorlikning mavjud holatini o'rganish, ota-onalar ishtirokini kuchaytiruvchi samarali shakllarni aniqlash, o'quvchilar tarbiyasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Xulosa

Oila va maktab tarbiyaning ikki muhim ustuni hisoblanadi. Ularning hamkorligi bola shaxsining barkamol rivojida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugungi kunda tarbiyaning murakkabligi, raqamli zamonning yangi xavf va imkoniyatlari ushbu hamkorlikni yanada dolzarblashtirmoqda.Oila- bola uchun sevgi va tarbiya maskani bo'lsa, maktab- intellectual va ijtimoiy rivojlanish maydonidir. Bu ikki institutning uyg'un hamkorligi natijasida har tomonlama yetuk, ijtimoiy faol, axloqan pok, digital madaniyatga ega shaxs tarbiyalanadi. Shuni aytishimiz lozimki, oila va maktab hamkorligi ta'lim tarbiya jarayonining uzviy va ajralmas bo'g'inidir. Mazkur hamkorlik bolaning shaxs sifatida kamol topishida muhim omil bo'lib, uning axloqiy, ma'naviy, intellektual va ijtimoiy rivojiga bevosita tasir ko'rsatadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ota-onalar faol ishtirok etgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'zlashtirish darajasi, intizomi va motivatsiyasi sezilarli darajada yuqori bo'ladi. SHuningdek, oila bilan maktab o'rtasidagi muntazam aloqa o'qituvchiga har bir bolaning individual xususiyatlarini chuqurroq anglash, ota-onaga esa samarali ko'maklashish imkonini yaratadi.

Bugungi glaballashuv va raqamli davr sharoitida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun hamkorlikning yangi shakllarini joriy etish, ota-onalar pedagogik madaniyatini yuksaltirish dolzarb vazifalardandir. Oila, maktab va mahalla o'rtasidagi integratsiyalashgan yondashuv bir butun tarbiyaviy tizimni shakllantirib, barkamol avlodni voyaga yetkazishda muhim kafolat vazifasini bajaradi. Shu bois oila-maktab hamkorligini mustahkamlash nafaqat tarbiyaviy jarayonni, balki jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy rivojini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimova R.Oila psixologiyasi. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. -260 b
2. Qodirov A.Pedagogika asoslari. -Toshkent; Fan, 2019. -280 b
3. Sattarova M. Maktab va oila hamkorligi metodikasi. -Toshkent; Ilm Ziyo, 2020. 180 b